

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUMUROTOV SHOHRUH SHAVKAT O‘G‘LI**

**KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA MOLIYAVIY  
VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
economic sciences**

**Abdumurotov Shohruh Shavkat o‘g‘li**

Korxonada raqobatbardoshligini ta‘minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish.....3

**Абдумуротов Шохрух Шавкат угли**

Повышение эффективности использования финансовых инструментов в обеспечении конкурентоспособности предприятия.....29

**Abdumurotov Shokhrukh Shavkat ugli**

Increasing the efficiency of the use of financial instruments in ensuring the competitiveness of the enterprise.....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUMUROTOV SHOHRUH SHAVKAT O‘G‘LI**

**KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA MOLIYAVIY  
VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3239 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

|                            |   |
|----------------------------|---|
| <b>Ilmiy rahbar:</b>       | <b>Burxanov Aktam Usmanovich</b><br>iqtisodiyot fanlari doktori, professor  |
| <b>Rasmiy opponentlar:</b> | <b>Qo'ziyeva Nargiza Ramazonovna</b><br>iqtisodiyot fanlari doktori, professor<br><b>Elmirzayev Samariddin Eshquvvatovich</b><br>iqtisodiyot fanlari doktori, professor |
| <b>Yetakchi tashkilot:</b> | <b>Toshkent Kimyo xalqaro universiteti</b>  |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (+99871) 239-28-72; faks: (+99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (+99871) 239-28-72); faks: (+99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi)

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisod fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisod fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisod fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global raqobat kuchayib borishi sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash moliyaviy vositalardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ahamiyatli darajadagi moliyaviy mablag'larni taqozo etuvchi sanoatning yetakchi tarmoqlaridagi sezilarli o'sish sur'atlari moliyaviy resurslarning barqaror ta'minotiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. "Jahon elektrotexnika xizmatlari bozori hajmi 2022-yilda taxminan 274,12 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2030-yilga kelib, 354,79 mlrd. AQSh doll.ga yetishi kutilmoqda. Taniqli elektrotexnika sanoati korxonalari – ABB, Siemens, GE, Enel, Legrand, Emerson, Prysmian, Schneider Electric, Iberdrola, State Grid Corp. of China, Grainger, Inc., G&W Electric Company, Fluor Corporation, Design Systems Inc. o'rtasida kuchli raqobat yuzaga kelib, raqobat strategiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda". Mazkur holatlar bugungi kunda istiqbolli tarmoq hisoblangan elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalardan foydalanishning samaradorligini oshirish muammolarining dolzarbligini namoyon etmoqda<sup>1</sup>.

Jahonda elektrotexnika sanoati rivojlangan AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kuchli raqobatda ustunlikka ega bo'lish uchun innovatsion imkoniyatlarni izlash, logistika muammolari, IT-texnologiyalarning rivojlanishi imkoniyatlari, energiya tejavchi texnologiyalarni tatbiq etishni moliyalashtirish, "yashil moliya" hamda "Sanoat 4.0" davrida barqaror raqobatbardoshlikni oshirish hamda strategik yo'nalishlarni belgilash kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash, uni ta'minlashning innovatsion yondashuv va usullarini takomillashtirish, raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, moliyaviy vositalardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish, elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning zamonaviy uslubiy asoslarini rivojlantirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda barqaror va samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash sharoitida elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mavjud ichki imkoniyatlari va resurslaridan samarali foydalanish, moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash, elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligi darajasini baholash shkalalarini aniqlash, raqobatbardoshlikni oshirishda investitsiyalashning moliyaviy vositalari turlaridan

<sup>1</sup> <https://www.globenewswire.com/en/news-release/2023/06/13/2686956/0/en/Global-Electrical-Engineering-Services-Market-Size-Is-Anticipated-to-Surge-Around-US-354-79-Billion-by-2030-Growing-at-a-CAGR-of-3-28.html>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

birini optimal tanlash usulidan foydalanish, korxonalar moliyaviy raqobatbardoshligining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 4-yanvardagi PQ-4090-son "Elektrotexnika sanoatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 30-maydagi PQ-4348-son "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-son "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-oktabrdagi 899-son "2019-2022-yillarda elektrotexnika sanoatini jadal rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashning fundamental asoslari, sanoat korxonalarini rivojlantirish strategiyalari va elektrotexnika sanoati korxonalarining ayrim muammolari xorijiy olimlardan I.Ansoff, M.Porter, R.Feurer, S.Sandu, A.B.Ciocănel, S.Bag, N.Ghantous, D.De Clercq, V.Fernandez, X.Xu, H.Kagermann, W.D.Lukas, W.H.Wang, A.T.Garcyez, S.N.Tasouj, P.John Cadick va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Ансофф И. Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989. – 519 с.; Porter M.E. (2015), Competitive advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Gheorghe Zaman, 2015, Competitivitatea – cheia de boltă a relansării comerțului exterior al României Avantajele/dezavantajele competitive ale României la nivel internațional; Feurer, Rainer, ШАХАРБАҲИ, Kazem. (1994) Defining Competitiveness: A Holistic Approach, Management Decision, Vol: 32, No: 2; The Lisbon Strategy (2010), An analysis and evaluation of the methods used and results achieved, European Parliament, DIRECTORATE GENERAL FOR INTERNAL POLICIES. <http://www.europarl.europa.eu/activities/committees/studies.do?language=EN>; Sandu S., Ciocănel A.B. (2015) Impact of R&D and innovation in high-tech exports, Papers for presentations, International Conference "Emergency Markets - Queries in Finance and Business", 24th -27th of October, University "Petru Maior", Tg. Mureș & Institute of National Economy, Bucharest; L.Ü.Alpkan et al. Market orientation, ambidexterity and performance outcomes. Proc. Soc. Behav. Sci. (2012); S.Bag et al. Industry 4.0 adoption and 10R advance manufacturing capabilities for sustainable development. Int. J.Prod. Econ (2021); H.Ç.Bal et al. Industry 4.0 and competitiveness.Proc. Comput. Sci (2019); D.De Clercq et al. Shedding new light on the relationship between contextual ambidexterity and firm performance: an investigation of internal contingencies. Technovation. (2013); N.Ghantous et al. The differential and synergistic effects of market orientation and entrepreneurial orientation on hotel ambidexterity. J.Retailing Consum. Serv. (2020); D.Gotteland et al. Strategic orientations, marketing proactivity and firm market performance. Ind. Market. Manag. (2020); V.Jafari-Sadeghi et al. Exploring the impact of digital transformation on technology entrepreneurship and technological market expansion: the role of technology readiness, exploration and exploitation. J.Bus. H.Chang Moon et al. A generalized double diamond approach to the global competitiveness of Korea and

MDH olimlaridan T.Y.Alekseyeva, G.L.Azoyev, A.P.Chelenkov, V.D.Shkardun, A.V.Ushanov, D.A.Drachev, G.V.Saviskaya, I.V.Geleta, Y.I.Dyachenko, M.G.Kudryavseva, T.I.Shayeva, Y.D.Safonova va boshqalarning ilmiy ishlarida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy vositalardan foydalanish masalalarining ayrim jihatlari o‘rganilgan<sup>4</sup>.

O‘zbekistonda esa sanoat korxonalari moliyaviy menejmentining nazariy va uslubiy asoslari A.Burxanov, I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev, T.S.Malikov, T.I.Bobakulov, S.E.Elmirzayev, O.O.Xamdamov, Sh.N.Muratova, J.J.Qurbanov, D.R.Rustamov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan<sup>5</sup>.

Biroq yuqoridagi mualliflarning ilmiy ishlarida elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta’minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu muammoni

---

Singapore. Int. Bus. Rev. (1998); K.Fang et al. Assessing national renewable energy competitiveness of the G20: a revised Porter's Diamond Model. *Renew. Sustain. Energy Rev.* (2018); V.Fernandez. Rare-earth elements market: a historical and financial perspective. *Resour. Pol.* (2017); S.O.Abioye. Artificial intelligence in the construction industry: a review of present status, opportunities and future challenges. *J.Build. Eng.* (2021); X.Xu. Industry 4.0 and industry 5.0 – inception, conception and perception. *J.Manuf. Syst.* (2021); A.Caputo. Digitalization and business models: where are we going? A science map of the field. *J.Bus. Res.* (2021); H.Kagermann, W.-D.Lukas, W.Wahlster. Industrie 4.0: mit dem Internet der Dinge auf dem Weg zur 4. industriellen Revolution. *VDI Nachr.* (2011). <http://www.vdi-nachrichten.com/Technik-Gesellschaft/Industrie-40-Mit-Internet-Dinge-Weg-4-industriellen-Revolution>; H.Wang, et al. A model for detecting safety hazards in key electrical sites based on hybrid attention mechanisms and lightweight Mobilenet. *Energy Rep.*, 7 (2021), pp. 716-724; T.V.Garcez, A.T. de Almeida. A risk measurement tool for an underground electricity distribution system considering the consequences and uncertainties of manhole events. *Reliab. Eng. Syst. Saf.*, 124 (2014), pp. 68-80; S.N.N. Tasouj, et al. Analyses and anticipating the future trend of accidents in an electricity distribution company of Iran: a time series analysis. *Work*, 68 (4) (2021), pp. 1273-1278; P.John Cadick, et al. *Electrical Safety Handbook*. McGraw-Hill Education (2012); A.Pinto, I.L.Nunes, R.A.Ribeiro. Qualitative model for risk assessment in construction industry: a fuzzy logic approach. *Doctoral Conference on Computing, Electrical and Industrial Systems*, Springer (2010).

<sup>4</sup> Алексеева Т.Е. Финансовые инструменты и финансовые войны. Дайджест-финансы. 3(195), 2011. 37-25 стр. <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovye-instrumenty-i-finansovye-voyny/viewer>; Алексеева Т.Е. Финансовый инструмент или финансовая махинация? // *Финансы и кредит*. 2010. № 27; Азоев Г.Л., Челенков А.П. Конкурентные преимущества фирмы. – М.: ОАО «Типография «Новости», 2000. – 256 с.; Котлер Ф. и др. Основы маркетинга: Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2003. – 944 с.; Шкардун В.Д., Ушанов А.В., Драчев Д.А. Оценка комплексного предложения фирмы на рынке с целью оптимизации маркетинговых затрат. // *Управление продажами*. 2003. № 2 (10); Савицкая Г.В. Экономический анализ. Учебник. 11-е изд., испр. и доп. – М.: Новое знание, 2015; Пястолов С.М. Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия: Учебник. 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2014; Гелета И.В., Дьяченко Е.И. Факторы финансовой устойчивости предприятия. // *Гуманитарные научные исследования*. 2015. № 6. [Электронный ресурс]. URL: <http://human.snauka.ru/2015/06/11517>; Кудрявцева М.Г. Что тестирует стресстест. // *Рынок ценных бумаг*. 2006. № 2.; Шаева Т.И., Сафонова Ю.Д. Финансовые инструменты. Учет и оценка финансовых инструментов. *Контентус*. 2015. <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovye-instrumenty-uchet-i-otsenka-finansovyh-instrumentov/viewer>; Глобальный стандарт исламских деривативов будет создан к декабрю. URL://<http://lenta.ru/news/2009/10/27>; FASB выпустил пробную версию стандарта по финансовым инструментам. URL://[http://gaap.ru/news/gaap\\_ifrs/3983](http://gaap.ru/news/gaap_ifrs/3983).

<sup>5</sup> Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Иқтисодиёт. 2019, – 164 б.; Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. – Т.: Академия, 2006. – 111 б.; Маликов Т.С. Молия: хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. И.ф.д., проф. А.В.Вахобовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Iqtisod-moliya, 2009; Бобакулов Т.И. Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг долзарб масалалари. // Ўзбекистон Республикасида қўлай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришда банк тизимининг роли. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2015. – 155 б.; Элмирзаев С.Э. Корпоратив молияни бошқаришда солиқ муносабатларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc) диссертация автореферати. – Т.: БМА, 2017. – 64 б. Хамдамов О.О. Корхоналарда молиявий менежмент тизимини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: БМА, 2017. – 58 б.; Қурбанов Ж.Ж. Давлат ва корпоратив тузилмалар ўртасидаги ўзаро молиявий муносабатларни самарали ташкил этиш истиқболлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: БМА, 2019. – 50 б.

hal etish zarurati tadqiqot mavzusi, maqsad va vazifalarini belgilashga imkoniyat yaratadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish va umumlashtirish;

korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish metodologiyasini o'rganish;

korxonalar raqobatbardoshligini baholashning uslubiy jihatlari tadqiq etish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda elektrotexnika sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini tahlil qilish;

O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

“O'zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar raqobatbardoshligini Elliott to'liqini asosida baholash;

moliyaviy injiniring asosida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish;

“Covid-19” pandemiyasidan keyingi sharoitda elektrotexnika sanoati korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy vositalardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish;

“O'zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar raqobatbardoshligini Elliott to'liqini asosida 2030-yilgacha prognozlash.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida “O'zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli va kompleks yondashuv, ekonometrik modellashtirish, iqtisodiy va statistik tahlil, qiyosiy va dinamik tahlil, ekspert baholash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra korxonalarda moliyaviy aktiv va moliyaviy majburiyat holatlarining hosil bo'lishiga olib keluvchi shartnoma tavsifidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi “moliyaviy vosita” tushunchasining mazmuni korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash omili nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;



elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligi darajasining “raqobatbardosh emas” [0,30 – 0,45], “o‘rtacha raqobatbardosh” [0,46 – 0,70], “yuqori raqobatbardosh” [0,71 – 3,0] oraliq chegaralariga muvofiq keluvchi qiymat shkalalarini belgilash asosida moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda elektrotexnika sanoati rivojlanishining o‘rta muddatli rivojlanish ssenariylarining 2026-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari chiziqli trend asosida ishlab chiqilgan;

“O‘zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalarining moliyaviy raqobatbardoshligi darajasi dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari Elliott to‘lqini asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“raqobatbardoshlik”, “korxonaning raqobatbardoshligi”, “moliyaviy vositalar” kabi tushunchalarga oid ilmiy-nazariy qarashlar tizimlashtirilgan;

elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlashda moliyaviy vositalardan foydalanishga oid ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganilib, uni tarmoq korxonalariga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

“O‘zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar raqobatbardoshligini Elliott to‘lqini asosida baholash taklif etilgan;

moliyaviy injiniring asosida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan;

“Covid-19” pandemiyasidan keyingi sharoitda elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy vositalardan samarali foydalanish yo‘llari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari moliyaviy faoliyatini o‘rganishda qo‘llanilgan ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi, ilmiy yangiliklar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mazkur mavzuni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini yanada takomillashtirish, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan esa elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlashda moliyaviy vositalardan foydalanishga oid ilmiy-uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta‘minlashda moliyaviy vositalardan foydalanishni takomillashtirish, sohani rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, oliy o‘quv yurtlarida sohaga oid fanlar, xususan, “Moliya”, “Korxonalar moliyasi”, “Korporativ moliya”, “Moliyaviy tahlil” kabi fanlardan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqishda ilmiy manba sifatida keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra korxonalarda moliyaviy aktiv va moliyaviy majburiyat holatlarining hosil bo'lishiga olib keluvchi shartnoma tavsifidagi moliyaviy munosabatlarni ifodalovchi "moliyaviy vosita" tushunchasining mazmunini korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash omili nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Raqobat razvedkasi" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida moliyaviy vositalarga oid nazariy-uslubiy qarashlar chuqurlashtirilib, talabalarda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash omili nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan "moliyaviy vosita" tushunchasi bo'yicha yangi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga imkon yaratgan;

elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligi darajasining "raqobatbardosh emas" [0,30 – 0,45], "o'rtacha raqobatbardosh" [0,46 – 0,70], "yuqori raqobatbardosh" [0,71 – 3,0] oraliq chegaralariga muvofiq keluvchi qiymat shkalalarini belgilash asosida moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash taklifi "O'zeltexsanoat" uyushmasi tomonidan uyushma tarkibidagi korxonalarining "Iqtisodiy barqarorligini oshirish hamda rivojlantirish dasturlari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zeltexsanoat" uyushmasining 2023-yil 5-sentabrdagi 04-3/1174-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida uyushma tarkibidagi "Grand Techno Master" MChJ korxonasi raqobatbardoshlik darajasi baholanib, moliyaviy barqarorligiga xavf soluvchi ichki tahdidlar aniqlangan, ularni bartaraf etish asosida 2022-yil yakuni bo'yicha ushbu korxonalarining raqobatbardoshligini mutanosib ravishda 0,2 hamda 0,3 punktga oshirish imkonini bergan;

O'zbekistonda elektrotexnika sanoati rivojlanishining o'rta muddatli rivojlanish ssenariylarining 2026-yilga qadar chiziqli trend asosida ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zeltexsanoat" uyushmasi tomonidan uyushma tarkibidagi korxonalarining "Iqtisodiy barqarorligini oshirish hamda rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zeltexsanoat" uyushmasining 2023-yil 5-sentabrdagi 04-3/1174-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zeltexsanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarini uzoq muddatli istiqboldagi rivojlantirish strategiyasi parametrlarini aniqlashtirish hamda asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan;

"O'zeltexsanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining moliyaviy raqobatbardoshligi darajasi dinamikasining Elliott to'liqini asosida ishlab chiqilgan 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zeltexsanoat" uyushmasi tomonidan uyushma tarkibidagi korxonalarining "Iqtisodiy barqarorligini oshirish hamda rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zeltexsanoat" uyushmasining 2023-yil 5-sentabrdagi 04-3/1174-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur

ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Grand Techno Master” MChJ raqobatbardoshligini oshirishga optimal moliyaviy vositalar tanlab olinib, 2030-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini “Grand Techno Master” MChJda 7,5 foizga oshirish imkoni aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar 5 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan va xo‘jalik yurituvchi subyektlar amaliyotiga joriy etishga tavsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e‘tirof etgan jurnallarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Mazkur dissertatsiya 3 ta bob va 9 ta paragrafdan iborat. Ishning hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlashda moliyaviy vositalardan foydalanishning ilmiy va uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda korxonalar raqobatbardoshligini ta‘minlashning nazariy-uslubiy asoslari hamda bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalar tadqiq etilgan.


Muallifning fikricha, “Sanoat korxonasining raqobatbardoshligi” murakkab tushuncha bo‘lib, “mahsulotning raqobatbardoshligi” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Bu tushunchalar juda chambarchas bog‘liq. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi, asosan, mahsulotlarning raqobatbardoshligi bilan shakllanadi. Biroq, ayni paytda, ko‘rinadigan o‘xshashliklardan qat‘i nazar, ular o‘rtasida ma‘lum farqlar mavjud.

Muallif ilmiy ishda “Elliott to‘lqini prinsipi asosida” “ko‘tarilish-tushish” tipidagi bifurkatsiyani kutish zonasi(hududi)ni izlash mexanizmini ishlab chiqishga e‘tibor bergan. Taqdim etilgan analitik model Fibonachchi spiralini prognoz qilish uchun foydalanishni taklif etgan. Muallif tomonidan iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi korxonalar dinamikasini prognoz qilish uchun Fibonachchi usulining ko‘lamini kengaytirishni maqsad qilib, birinchi bosqichda mualliflar tahlil qilish uchun mavjud retrospektiv hisobotda quyidagi mezonlarga ko‘ra tipik fraktal mavjudligi aniqlandi, ikkinchi bosqichda dinamikaning ko‘tarilish va pasayish tarmoqlari uchun Fibonachchi-kanal qurildi, uchinchi bosqichda fraktalning boshlanishini aniqlash va ushbu geometrik asosda Fibonachchi-spiralni qurish bilan cheklangan, to‘rtinchi bosqichda Fibonachchi-spiralning Fibonachchi-kanallari bilan kesishish maydoni aniqlandi va iqtisodiy dinamikaning bifurkatsiya (belgi o‘zgarishi) gipotetik zonasi aniqlandi.

Bunday holda analitik Fibonachchi tenglamasidan foydalanilgan. Bu tenglama quyidagicha ko‘rinish oldi (1):

$$\left. \begin{aligned} x(t) &= \frac{1+\delta}{1+\delta^2} \left( 1 - \delta^t * \cos \frac{\pi t}{2} \right) - \frac{1-\delta}{1+\delta^2} \sin \frac{\pi t}{2} \\ y(t) &= \frac{1-\delta}{1+\delta^2} \left( 1 - \delta^t * \cos \frac{\pi t}{2} \right) - \frac{1+\delta}{1+\delta^2} \sin \frac{\pi t}{2} \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

Elliott to‘lqin prinsipi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar mavjudligining yagona shakli tebranish rejimidir; ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar iyerarxikdir. Har qanday darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning xatti-harakati yuqori darajadagi tizimning ta‘siri bilan belgilanadi.




### 1-rasm. Korxonada raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar<sup>6</sup>

Taklif etilgan modeldan foydalanish raqobatbardosh razvedka usullarini qo'llashni ko'rsatadi, ya'ni sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ular o'rtasida ochiq va maxfiy ma'lumotlarning o'zaro almashinuvi zarur. Agar o'zaro ta'sir qiluvchi (axborot bilan bog'liq) bir xil boshlang'ich sharoitlar yuzaga kelsa, sanoat korxonalari boshqa sanoat korxonalari bilan hamkorlik qilmasdan ishlaydigan yagona korxonalariga qaraganda eng katta bozor ulushini olish imkoniyati bo'yicha aniq raqobatdosh ustunlikka egadir.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida sanoatning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini ochib berilgan, O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik tahlil asosida aniqlangan, “O'zeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar raqobatbardoshligini Elliott to'liqini asosida baholash natijalari yoritilgan.


O'zbekistonda elektrotexnika sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini to'g'risida gap borarkan, avvalambor, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha birgina 2022-yilda YaIMda sanoat ulushi 26,7 foizni tashkil etgan. Mamlakatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 553265,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 21,3 foizga oshgan. Tog'-kon sanoatining o'tgan shu davrga nisbatan 2022-yilda 101,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, qayta ishlash sanoatining o'tgan shu davrga nisbatan 5,4 foizga oshgan.

<sup>6</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.



**2-rasm. Elektrotexnika sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning fizik hajm indeksining solishtirma diagrammasi (foizda)<sup>7</sup>**

Aksariyat tarmoqlar oxirgi 2 yilda o‘shish tendensiyasiga ega, biroq kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (98,1 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (89,9 %), kompyuterlar hamda elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (85,8 %) 2022-yilda o‘tgan yilga nisbatan pasaygan. Buni vizual ko‘rinishda sanoat, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish va elektr uskunalar ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi to‘g‘risidagi 3-jadvalda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.



**3-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda)<sup>8</sup>**

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlar soni tahlil qilinganda, 2021-yilda tugatilgan korxonalar soni keskin oshganligi aniqlanib, buni “Covid-19” pandemiyasidan keyingi ta’sir sifatida ko‘rishimiz mumkin.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, 2023-yilda ham faoliyati tugatilgan korxonalar soni 2022-yilga nisbatan qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida 134,8, sanoatda 127,4, qurilishda 120,2, savdoda 131,8, tashish va saqlash boʻyicha 147,5, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar 125,0, axborot va aloqada 145,4, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 133,4 va boshqa turlarda 123,5 foizni, jami respublika boʻyicha esa 129,7 foizni tashkil etganligini koʻrishimiz mumkin. Bu esa oʻz navbatida, tarmoqlarda, shu jumladan, elektrotexnika sanoatida ham raqobat oshib borayotganligini koʻrsatadi.

### 1-jadval

#### “Oʻzeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi elektrotexnika sanoati korxonalari moliyaviy koʻrsatkichlari tahlili<sup>9</sup>

| Moliyaviy koʻrsatkichlar   | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2022-yilda 2018-yilga nisbatan oʻzgarishi (+,-) |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---|
| <b>“Grand Techno Master” QK MChJ</b>   |         |         |         |         |         |   |
| Mutlaq likvidlilik koeffitsiyenti (cash ratio)                                   | 0,14    | 0,18    | 0,21    | 0,26    | 0,21    | -0,05   |
| Joriy likvidlilik koeffitsiyenti (Current ratio)                                 | 1,12    | 1,41    | 1,59    | 1,68    | 1,25    | -0,43   |
| Aylanma kapitalning manyovrlilik koeffitsiyenti (Current assets to equity ratio) | 0,09    | 0,07    | 0,05    | 0,29    | 0,36    | 0,07  |
| Qarz va xususiy mablagʻlarning nisbati (debt-to-equity ratio)                    | 1,33    | 1,42    | 3,62    | 4,16    | 4,56    | 0,4   |
| Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (Equity ratio)                              | 0,75    | 0,70    | 0,28    | 0,24    | 0,22    | -0,02   |
| Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti   | 0,39    | 0,35    | 0,42    | 0,48    | 0,64    | 0,16  |

Dissertatsiya tadqiqoti davomida “Oʻzeltexsanoat” uyushmasi tarkibidagi elektrotexnika sanoati korxonalari moliyaviy koʻrsatkichlari tahlil qilinib, xulosalar olingan. Tahlilga koʻra, 2018-2022-yillarda “Grand Techno Master” MChJning ushbu davrdagi koʻrsatkichlariga nisbatan yuqoriligini koʻrsatgan. Shuningdek, “Grand Techno Master” MChJ aylanma kapitalning manyovrlilik koeffitsiyenti hamda moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari belgilangan meʼyorlar darajasida emasligi aniqlanib, moliyaviy vositalardan foydalanish samaradorligi pastligini koʻrsatdi. Respublika boʻyicha aynan elektrotexnika sanoati rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik tahlil amalga oshirildi.

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan ekonometrik modellarga ko'ra, yangi regression model tuzilgan.

$$Y = -2457,1 + 1,15 \cdot X_2 + 5,43 \cdot X_3 - 3,87X_{10} \quad (2)$$

Ushbu tenglamaning tahlili quyidagichadir: mamlakatimizda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash hajmining bir birlikka oshishi elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'rtacha 1,15 birlikka oshishiga olib kelsa; suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish hajmining bir birlikka oshishi elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'rtacha 5,43 birlikka oshishiga olib keladi.

$$Y = -33489,75 + 0,113 \cdot X_4 + 0,0008 \cdot X_7 \quad (3)$$

O'zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining bir birlikka oshishi mamlakatimizda elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'rtacha 0,11 birlikka oshishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasida eksportni rag'batlantirishga qaratilgan institutsional asos va yaratilgan huquqiy-me'yoriy baza ham sanoatga, shu jumladan, elektrotexnika sanoatiga ijobiy ta'sir o'tkazarkan. O'zbekiston Respublikasining mamlakatlar bo'yicha tovarlar va xizmatlar eksporti bir birlikka oshishi mamlakatimizda elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'rtacha 0,008 birlikka oshishiga olib kelishi aniqlandi.

$$Y = -22507,55 + 0,75 \cdot X_4 + 4,21 \cdot X_3 \quad (4)$$

Ushbu modelda  $x_7$  ning p-qiymati 0,05 dan katta bo'lganligi sababli ushbu modelni adekvat deb hisoblay olmaymiz.

$$Y = -16391,39 + 4,675 \cdot X_3 + 0,075 \cdot X_4 \quad (5)$$

Tenglamani izohlaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish hajmining bir birlikka oshishi mamlakatimizda elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'rtacha 0,001 birlikka oshishiga, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining bir birlikka oshishi mamlakatimizda elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'rtacha 0,075 birlikka oshishiga olib keladi.

$$Y = -216414,4 + 0,003 \cdot X_7 + 99,26 \cdot X_8 \quad (6)$$

Shuningdek, Student taqsimotining t-mezoni bo'yicha  $x_7$  va  $x_8$  da ( $p=0.072$ ), ya'ni  $p = 0,1$  qiymatdagina ahamiyatlidir, boshqa omillar esa statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasi elektrosanoat korxonalari iqtisodiy ko‘rsatkichlarining ko‘p omilli regresson modeli asosida quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$Y = -16780,06 + 0,793 \cdot X4 + 1,82 \cdot X5 \quad (7)$$

Aniqlangan regressiya tenglamasini interpretatsiya qiladigan bo‘lsak, cyeteris paribus bo‘lgan holatda, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining bir birlikka oshishi mamlakatimizda elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘rtacha 0,79 birlikka oshishiga olib keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining bir foizga oshishi mamlakatimizda elektrotexnika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘rtacha 1,82 birlikka oshishiga olib kelishi aniqlandi.

## 2-jadval

### O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari raqobatbardoshligi iqtisodiy ko‘rsatkichlarining ko‘p omilli regression tahlili natijalari<sup>10</sup>

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 13     |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | 1.9598e+09 | 2  | 979907591  | F(2, 10)      | = | 389.03 |
| Residual | 25188519.7 | 10 | 2518851.97 | Prob > F      | = | 0.0000 |
| Total    | 1.9850e+09 | 12 | 165416975  | R-squared     | = | 0.9873 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.9848 |
|          |            |    |            | Root MSE      | = | 1587.1 |

| y     | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| x4    | .0793457  | .0129799  | 6.11  | 0.000 | .0504248 .1082667    |
| x5    | 1.821254  | .5227423  | 3.48  | 0.006 | .6565114 2.985996    |
| _cons | -16780.06 | 2497.734  | -6.72 | 0.000 | -22345.36 -11214.76  |

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ekonometrik tahlillar asosida mamlakatimizda rivojlantirish yo‘nalishlari aniqlandi: mamlakatimizda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar kiritishni izchil davom ettirish; sanoat mahsulotlari eksportini yanada rivojlantirish; mamlakatda elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish kabi tarmoqlarni kompleks rivojlantirish elektrotexnika sanoati korxonalarini rivojlantirish vektorlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Keyinchalik biz Elliott tamoyiliga asoslangan yangi modeldan foydalangan holda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash darajasini kiritamiz (3-jadval).

Ushbu shkalada muallif Elliott tamoyiliga asoslangan yangi modeldan foydalangan holda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash darajalarini belgilagan. Past daraja korxonaning bozorda kam tanilishini, aholining

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida Stata 14 dasturi orqali muallif tomonidan hisoblangan.

xabardorligi pastligini, natijada boshqa korxonalar o'rtasidagi raqobatning pastligini ko'rsatadi.

### 3-jadval

#### Elliot tamoyiliga asoslangan yangi modeldan foydalangan holda elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholash darajasining ko'lami<sup>11</sup>

| Elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligi darajasi | Mezonlar              |
|--|-----------------------|
| Past daraja  | 0,300 dan 0,450 gacha |
| O'rtacha daraja  | 0,450 dan 0,700 gacha |
| Yuqori daraja  | 0,700 dan 3,000 gacha |

O'rtacha daraja kompaniyaning raqobatbardoshligini ko'rsatadi, ammo salbiy tomonlari mavjud, bu vaziyatda zarur rivojlanish darajasini ta'minlaydigan raqobatbardosh razvedka vositalaridan foydalanish yaxshiroqdir. Yuqori daraja kompaniyaning raqobatbardoshligini, muvaffaqiyatli ekanligini va bozorlarda yuqori mavqega ega ekanligini ko'rsatadi.

### 4-jadval

#### “Grand Techno Master” QK MChJ Elliott tamoyiliga asoslangan yangi modeldan foydalangan holda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash uchun ishlab chiqilgan modelni sinovdan o'tkazish uchun hisoblash mezonlari<sup>12</sup>

| Ko'rsatkichlar  | 2013-y.        | 2014-y.        | 2015-y.        | 2016-y.        | 2017-y.        | 2018-y.        | 2019-y.        | 2020-y.        | 2021-y.         | 2022-y.         |
|---|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|-----------------|-----------------|
| Tushum  | 16843<br>00,00 | 174849<br>8,00 | 177158<br>0,00 | 253427<br>2,00 | 343183<br>0,00 | 352792<br>1,24 | 362670<br>3,03 | 372825<br>0,72 | 3827954,<br>477 | 392811<br>9,217 |
| Aktivlar  | 10192<br>16,00 | 123847<br>6,00 | 148011<br>6,00 | 230925<br>5,43 | 387491<br>6,62 | 398341<br>4,29 | 409494<br>9,89 | 420960<br>8,48 | 4322185,<br>077 | 443528<br>2,172 |
| O'z mab-lag'lari  | 59516<br>2,00  | 824144<br>,00  | 975325<br>,00  | 156579<br>7,81 | 221841<br>9,17 | 228053<br>4,91 | 234438<br>9,88 | 344350<br>0,20 | 3852440,<br>287 | 443392<br>2,932 |
| Oldingi davrdagi ko'rsatkichlarining nisbati  |                |                |                |                |                |                |                |                |                 |                 |
| Tushum  | 1,0256<br>4103 | 1,0381<br>16   | 1,0132<br>01   | 1,4305<br>15   | 1,3541<br>68   | 1,028          | 1,028          | 1,028          | 1,033           | 1,04            |
| Aktivlar  | 1,0256<br>4103 | 1,2151<br>26   | 1,1951<br>11   | 1,5601<br>85   | 1,6779<br>94   | 1,028          | 1,028          | 1,028          | 1,033           | 1,02            |
| O'z mab-lag'lari  | 1,0256<br>4103 | 1,3847<br>39   | 1,1834<br>4    | 1,6054<br>11   | 1,4167<br>98   | 1,028          | 1,028          | 0,14688<br>3   | 0,95            | 1,008           |
| Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash modeli bo'yicha Elliott to'lqin nisbati “Grand Techno Master” MChJ |                |                |                |                |                |                |                |                |                 |                 |
|   |                | 2023-y.        | 2024-y.        | 2025-y.        | 2026-y.        | 2027-y.        | 2028-y.        | 2029-y.        | 2030-y.         |                 |
| Yangi modelning optimistik prognozi   |                | 1,0456<br>4103 | 1,2326<br>6    | 1,1505<br>84   | 1,5520<br>37   | 1,5029<br>87   | 1,048          | 1,048          | 0,75429<br>4    |                 |
| Elliot tamoyiliga nisbati   |                | 1,0256<br>4103 | 1,2126<br>6    | 1,1305<br>84   | 1,5320<br>37   | 1,4829<br>87   | 1,028          | 1,028          | 0,73429<br>4    |                 |
| Yangi model uchun pessimistik prognoz   |                | 1,0136<br>4103 | 1,2006<br>6    | 1,1185<br>84   | 1,5200<br>37   | 1,4709<br>87   | 1,016          | 1,016          | 0,72229<br>4    |                 |

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi.

Shunday qilib, Elliott prinsipi bo'yicha ushbu modeldan sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda foydalanish mumkin. Ushbu model o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Kamchiligi shundaki, ushbu modelni hisoblashdan oldin korxonalar faoliyatining barcha oldingi darajalarini hisoblash kerak. Modelning afzalligi raqobatbardoshlik prognozining yuqori aniqligini, model optimistik rivojlanish prognozini va pessimistik prognozni ko'rsatadi, bunday prognoz korxonalar rivojlanishining bir ssenariysi bo'yicha ham, boshqasi bo'yicha ham turli xil choralar ko'rish mumkinligini ko'rsatadi, undan keyin esa korxonalar faoliyatini optimallashtirish uchun amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan modelni sinovdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasining elektrotexnika sanoati korxonasi: "Grand Techno Master" MChJ misolida amalga oshiriladi. Elektrotexnika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholashni Elliott tamoyiliga asoslangan yangi modeldan foydalangan holda hisoblash uchun biz korxonaning 10 yil davomida daromadlari, aktivlari va o'z mablag'larining oldingi darajalarini hisoblab chiqamiz, bu esa korxonalar qiymatining darajasini va uning bozor raqobatbardoshligini ko'rsatadi. Korxonalar qiymati va uning rentabelligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning raqobatbardoshligi shunchalik yuqori bo'ladi (5-jadval).

## 5-jadval

### Elliott prinsipiga asoslangan yangi modeldan foydalangan holda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash uchun ishlab chiqilgan modelni sinovdan o'tkazish uchun hisoblash mezonlari

#### "Grand Techno Master" MChJ<sup>13</sup>

| Ko'rsatkichlar   | 2013-y.   | 2014-y.   | 2015-y.   | 2016-y.   | 2017-y.   | 2018-y.   | 2019-y.    | 2020-y.   | 2021-y.   | 2022-y.   |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|------------|-----------|-----------|-----------|
| Daromad  | 854320,0  | 824361,0  | 814380,0  | 818350,0  | 849480,0  | 873265,4  | 897716,8   | 922852,9  | 947532,5  | 972326,3  |
| Aktivlar   | 1982205,8 | 1953784,7 | 1901791,7 | 1886255,3 | 1849828,5 | 1901623,7 | 1954869,22 | 2009605,5 | 2063347,9 | 2117338,8 |
| Kapital  | 308412,5  | 295976,5  | 287429,2  | 273077,1  | 263722,8  | 271107,1  | 278698,1   | 286501,6  | 294163,5  | 301860,7  |
| O'tgan davrlar ko'rsatkichlarining nisbati   |           |           |           |           |           |           |            |           |           |           |
| Daromad  | 1         | 1,0256    | 1,0256    | 0,9649    | 0,9878    | 1,0048    | 1,03804    | 1,0280    | 1,02800   | 1,02800   |
| Aktivlar   | 1         | 1,0256    | 1,0256    | 0,9856    | 0,9733    | 0,9918    | 0,98069    | 1,0280    | 1,02800   | 1,02800   |
| Kapital  | 1         | 1,0256    | 1,0256    | 0,9596    | 0,9711    | 0,9500    | 0,96574    | 1,0280    | 1,02800   | 1,02800   |
| "Grand Techno Master" MChJ sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini baholash modeli bo'yicha Elliott to'liqlarining nisbati |           |           |           |           |           |           |            |           |           |           |
|  |           | 2023-y.   | 2024-y.   | 2025-y.   | 2026-y.   | 2027-y.   | 2028-y.    | 2029-y.   | 2030-y.   |           |
| Yangi model uchun optimistik prognoz   |           | 1,0456    | 0,9900    | 0,9974    | 1,0022    | 1,01482   | 1,0480     | 1,04800   | 1,04800   |           |
| Elliott nisbati  |           | 1,0256    | 0,9700    | 0,9774    | 0,9822    | 0,99482   | 1,0280     | 1,02800   | 1,02800   |           |
| Yangi model uchun pessimistik prognoz  |           | 1,0056    | 0,9500    | 0,9574    | 0,9622    | 0,97482   | 1,0080     | 1,00800   | 1,00800   |           |

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

“Grand Techno Master” QK MChJ ma’lumotlarini hisoblab chiqib, 10 yil davomida daromad ko‘rsatkichlarida sezilarli yaxshilanish kuzatilgan, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 2118902,1 ming so‘mga oshgan, korxonalar aktivlari 3263474 so‘mga oshgan, degan xulosaga kelingan, sof daromad ijobiy ekanligi aniqlangan.

